

TURLI GUL TIPIGA MANSUB QO‘ZILARNING GUL UZUNLIGI VA KENGLIGI

Nazarova Moxira Azamatovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti q.x.f.f.d.(PhD) katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qorako‘l qo‘zilarni rangining ifodalanishi va tekisligining turli tipli qo‘zilarda turli darajada namoyon bo‘lishi ushbu xususiyatlar qo‘zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma–xilligidan ham kelib chiqishi bilan taqqoslanganli to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gul tipi, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, qorako‘l qo‘zilari, qalamkul.

Seleksiya amaliyotida o‘rganilayotgan belgilar orasida bog‘liqlik to‘g‘risida ma’lumotlardan foydalanish hisobga olinadigan belgilar sonini kamaytirish, seleksion jarayonni tezlashtirish, uning samaradorligini oshirish imkonini yaratadi.

Sur, ko‘k va qora rangli qo‘ylarda gul xususiyatlarining namoyonligini belgilovchi muhim seleksion belgilarning irsiy xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ko‘rsatadiki, mahsulot eksportbopligini oshirish borasida ma’lum darajada tadqiqotlar bajarilgan, lekin sohada, ayniqsa sur rangida dunyo bozorining hozirgi talabi nuqtai nazaridan qaralsa qovurg‘asimon va yassi guruhlaridagi qorako‘l mahsuloti etishtirishni ta’minlovchi qo‘ylarning ham son, ham sifat jihatidan kamligini ko‘rsatadi.

Qorako‘lchilikda seleksiya yaxshilarini tanlash va ulardan foydalanishni anglatib, u mahsuldarlikni oshirish va takomillashtirishga qaratiladi.

Seleksiyaning asosiy bo‘g‘inlaridan biri esa tanlash hisoblanib, uning asosiy maqsadi populyasiyalarning strukturasini yaxshi tomonga o‘zgarishdan iborat. Tanlash zootexnikaviy usul sifatida seleksiyanuvchi belgilarning genetik jihatdan yaxshilashni ta’minlaydi. Tanlash seleksiyaning boshlang‘ich bosqisi bo‘lib, undan keyingi bosqich juftlash hisoblanadi. Uning maqsadi tanlangan belgilarni avlodlarda mustahkamlash, ularning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashdir.

Seleksiya naslchilik ishlarini yuritishda tanlash va juftlash yagona tizim deb qaratiladi. Bunda qarash kerakki, juftlash har doim tanlash jarayonini kuchaytiradi, tanlash esa har doim juftlashga asos yaratadi.

Seleksiyaning asosiy vazifalari nasl uchun tanlangan hayvonlarni parvarishlash orqali yuzaga chiqariladi. Shu jihatdan aytish mumkinki, maqsadli tanlash, juftlash va parvarishlash seleksiyaning asosini tashkil etadi.

Ma’lumki, hayvonlar zotlarini yaratish, takomillashtirish, mahsuldarligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilashdi amaliyotchilar, seleksioner – olimlar turli usullardan foydalanganlar.

Qorako‘l zoti shakllanishining ilk bosqichida chorvadorlar qo‘ylarni tashqi ko‘rinishiga qarab seleksiyalagan. Bunda asosiy ko‘rsatkich katta yoshli qo‘ylar jun qoplaming sifati hisoblanib, unga qarab olingan avlodlarning gul sifati bashorat

qilingan. Keyinchalik esa ushbu jarayonga ilmiy yondashuv asosida asosiy ko'rsatkich sifatida gullarning tip va shakllari tanlangan.

- qorako'l gullarining shakllanishi zotning irsiy xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi murakkab biologik jarayon hisoblanadi;
- u yoki bu qorako'l gullarining shakllanishi ularning turli darajadagi o'zgaruvchanligini chaqiruvchi genotipik va paratipik omillar ta'sirida sodir bo'ladi;
- u yoki bu gul shakllariga ega bo'lgan qorako'l qo'zilarini olish seleksiya yo'nalishi va ota – onalarni juftlashga bog'liq.

Ma'lumki, qorako'l qo'ylarining asosiy genotipi yarim doira qalamgul tipi hisoblanib, ularning uzun, o'rta enli rasmlı gullar, yuqori jun – tola sifati bilan xarakterlanuvchi guruhi qimmatli hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, qo'ylarning mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, irsiyatini takomillashtirishda gullarning kengligi o'hta muhim seleksion belgilardan biri hisoblanadi. O'rta kenglikdagi gullarga ega bo'lgan qo'ylarni tanlash va shu belgi bo'yicha ularni juftlash samarali bo'lib, muhim seleksion belgilarning namoyon bo'lishini maksimallashtiradi.

Qorako'l qo'ylarining mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish, takomillashtirish va ulardan seleksiya jarayonida samarali foydalanishda xo'jalik jihatdan foydala belgilarning o'zaro bog'liqlik va irsiylanish xususiyatlarini o'rganish muhim ag'amiyatga ega.

Tahlillar ko'rsatadiki, qorako'lchilikda, ayniqsa rangli, xususan sur qorako'lchiligida urchitish va seleksiyalash usullarini takomillashtirishda genetik parametrлarni qo'llash yo'nalishida etarli darajadagi tadqiqotlar bajarilmagan. Bajarilgan tadqiqotlarning aksariyati qora ranli qorako'l qo'ylarining gul xususiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan. Sur rangli qo'ylarda, ayniqsa uning rang va rangbaranglik ko'rsatkichlari bo'yicha bunday tadqiqotlar olib borilmagan. Zotning qimmatli guruhlaridan hisoblangan yassigul tipli qo'ylarda bajarilgan bunday tadqiqotlar deyarli yo'q.

Shu nuqtai nazardan sur rangli yassi tipli qorako'l qo'ylarini urchitish va seleksiyalash xususiyatlarini o'rganish, uning ilmiy asoslarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Qo'zilarning gul tiplari ularning terilari sathidagi gullarning tipi va shakliga qarab aniqlandi. Gullarning tip va shakllari, teri sathida hosil qilgan rasmi ko'z bilan ko'rish, mustahkamligi qo'l bilan uning ochiq tomonidan qarama – qarshi harakat qilib buzilishga qarashilik ko'rsatishini baholash, uzunligi (12 mm dan -20 mm gacha kalta, 22 mm dan -40 mm gacha o'rta uzunlik, 40 mm dan yuqori – uzun. Va eni 5 mm gacha mayda, 5-9 mm o'rta, 9 mm dan yuqori – katta) va jun tolalarining uzunligi millimetrlı lineyka yordamida aniqlandi.

Gul sifati ko'rsatkichlari

Bu yo'nalishda tanlash ishlari, asosan gullarning tip va shakllari uzunligi, eni, mustahkamligi, joylashish rasmi kabi muhim seleksion belgilar bo'yicha olib boriladi. Ushbu ko'rsatkichlar qanchalik yuqori darajada namoyon bo'lsa qo'ylarning nasliy qimmatiligi shunchalik ortadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotlarda qo'zilarda ushbu belgilarning namoyon bo'lish darajalari o'rganildi.

Gullarning uzunligi va kengligi (eni). Ushbu ko'rsatkichlar barcha rangli qorako'l qo'yalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Gullarning uzun va o'rta kenglikda bo'lishi (5-9 mm) qo'yarning qimmatlilagini oshiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, turli gul tipiga mansub qo'zilar gullarning uzunligi va kengligi bo'yicha ma'lum farqlanish va o'zgaruvchanlikka ega. Gullarning uzunligi bo'yicha olingan ma'lumotlar ko'rsatadiki, uzun gulli avlodlar chiqimi bo'yicha qovurg'asimon tipli qo'zilar .ng yuqori ($62,5 \pm 6,99\%$) ko'rsatkichga ega bo'lib, bu ko'rsatkich yassi tipli qo'zilarda ham etarli darajada yuqori ($57,1 \pm 6,23\%$) ekanligi aniqlandi. Yarim doira qalamgul tipli qo'zilarda uning $52,3 \pm 5,97\%$ foizni tashkil etganligi qayd etildi.

Bu borada etarli nasliy qimmatlilikni ko'rsatuvchi gullarning o'rta uzunligiga ega qo'zilar salmog'i yassi tipida $28,6 \pm 5,59\%$ foizni, yarim doira qalamgul tipida $33,4 \pm 5,64\%$ foizni, qovurg'asimon tipida $27,1 \pm 6,84\%$ foizni tashkil etganligi aniqlandi. O'sikgul tipli qo'zilar asosan kalta ($51,1 \pm 7,45\%$) va o'rta uzunlikdagi ($48,9 \pm 7,45\%$) gullar bilan xarakterlanishi kuzatildi. O'rta uzunlikdagi gullar bo'yicha birinchi uch tipdagi qo'zilar ko'rsatkichining o'sikgul tipi ko'rsatkichidan statistik ishonchli ($R < 0,05$) ustunligi qayd etildi.

Zotdorlikni xarakterlovchi muhim seleksion ko'rsatkichlardan biri hisoblangan gullarning kengligini o'rganish natijalari yassi va qovurg'asimon tiplariga gullarning o'rta ($71,4-75,0\%$) va katta ($25,0-28,6\%$) kengligi, yarim doira qalamgul tipiga mayda ($12,7 \pm 3,98\%$) va o'rta ($71,4 \pm 5,40\%$) kengligi, o'sikgul tipiga qisman mayda ($17,8 \pm 5,70\%$), asosan o'rta ($46,6 \pm 7,44\%$) va katta ($35,6 \pm 7,14\%$) kengligi xosligini ko'rsatdi. O'rta kenglikdagi gullar bo'yicha tahlillar bu ko'rsatkichning yarim doira qalamgul tipida 5-7 millimetrn, yassi va qovurg'asimon tiplarida 7-9 millimetrn, o'sikgul tipida esa 6-9 millimetrn tashkil etganligini ko'rsatdiki, bu borada yarim doira qalamgul tipi eng optimal, qolgan tiplar esa nisbatan yirikroq gullar bilan xarakterlanishi aniqlandi.

Turli gul tipiga mansub qo'zilarning gul uzunligi va kengligi bo'yicha taqsimlanishi

Gul tipi	n	Gul uzunligi, % ($X \pm S_x$)			Gul kengligi, % ($X \pm S_x$)		
		uzun	o'rta uzun	kalta	mayda	o'rta	katta
Yassi	6	$57,1 \pm 6,$	$28,6 \pm 5,$	$14,3 \pm 4,$	-	$71,4 \pm 5,6$	$28,6 \pm 5,$
	3	23	69	41		9^x	69
Yarim doira qalamgul	7	$52,3 \pm 5,$	$33,4 \pm 5,$	$14,3 \pm 4,$	$12,7 \pm 3,$	$71,4 \pm 5,4$	$15,9 \pm 4,$
	0	97	64	18	98	0^x	37
Qovurg'asimon	4	$62,5 \pm 6,$	$27,1 \pm 6,$	$10,4 \pm 4,$	-	$75,0 \pm 6,2$	$25,0 \pm 6,$
	8	99	84	41		5^x	25
O'sikgul	4	-	$48,9 \pm 7,$	$51,1 \pm 7,$	$17,8 \pm 5,$	$46,6 \pm 7,4$	$35,6 \pm 7,$
	5		45	45	70	4	14

X- $R < 0,05$

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, yassi va qovurg‘asimon tipli qo‘ylarni seleksiyalashda gullarning kengligini biroz ensizlantirishga, ya’ni yarim doira qalamgul tipi ko‘rsatkichi darajasiga etkazishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Turli rangdagi qorako‘l qo‘ylarini urchitish va seleksiyalash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qora rangli qo‘ylarni seleksiyalashda gul, jun – tola sifati, konstitutsional va o‘sish hamda rivojlanish xususiyatlariga e’tibor qaratilsa, rangli, shu jumladan sur qorako‘l qo‘ylarini seleksiyalashda qayd etilgan ko‘rsatkichlardan tashqari bir qator rang va rangbaranglik ko‘rsatkichlarini ham inobatga olish talab etiladi. Shu jihatdan sur qorako‘l qo‘ylarini urchitish va seleksiyalash o‘ziga xos murakkabliklari bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda sohada qorako‘l zotining nasliy va mahsuldorlik imkoniyatlaridan foydalanimish darajasining pastligi ushbu yo‘nalishda maqsadli tadqiqot ishlarini bajarishni toqazo etadiki, shu jihatdan olib borilgan tadqiqotlar ma’lum darajada dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Газиев А., Фазилов У. Т., Юсупов С. Ю. Проявление некоторых завитковых особенностей и качества волосяного покрова у ягнят чёрной окраски. “Чўл – яйлов чорвачилигини ривожлантириш ва чўлланишнинг олдини олишнинг илмий – амалий асослари” мавзусидаги халқаро илмий – амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2019.-25-26 бет.
2. Юсупов С. Ю. Конституциональная дифференциация и продуктивность каракульских овец. Монография. Ташкент, 2005.-239 с.
3. Azamatovna, Nazarova Moxira, and Xujamov Jurabek Nayimovich. "Sur rangli qorako ‘l qo ‘ylarini gul tiplariga taqsimlanishi." *QISHLOQ XO‘JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI* (2023): 125-131.
4. Nazarova, Mohira Azamatovna, Komila Farxod qizi Isaqulova, and Zuxra Ergash qizi Mamarahimova. "QORAKO ‘L QO ‘YLARING GUL SIFATI KO ‘RSATKICHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 3.2 (2024): 197-199.
5. Azamatovna, Nazarova Moxira, and Xujamov Jurabek Nayimovich. "Sur rangli qorako ‘l qo ‘ylarini gul tiplariga taqsimlanishi." *QISHLOQ XO‘JALIGI, ATROF-MUHIT VA BARQAROR RIVOJLANISH MILLIY KONFERENSIYASI* (2023): 125-131.